Абдуллаева Нигора Курбановна	
Жанровые особенности рассказа-антиутопии В. С. Маканина "Однодневная война".....	574
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Мифопоэтика и аксиологические функции архетипа матери-хранительницы в повестях В. Г. Распутина "Последний срок" и "Прощание с матёрой"	578
Коржова Шахло Одилжоновна	
Методологические аспекты изучения адаптаций Песчанковых (Gerbillidae) к аридным условиям: анализ классических и современных исследований	585
Нурова Хикоят Кенжаевна	
К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков	590
Рахимова Мухайё Акмаловна	



TYUTORLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA SUN'IY INTELEKTGA ASOSLANGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

O'rinova Nilufar Muhammadovna

FarDU professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi

Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi

FarDU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi
 tayanch doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqola orqali zamonaviy sharoitda talabalar bilan tyutorlik faoliyatini olib borish hamda ushbu sohaga bugungi kunda ma'lum va mashhur sun'iy intellektga asoslangan ta'lim texnologiyalarini joriy etish yo'llari, qolaversa, xorij tajribasi tahlilini o'rganish asosida tyutorlarning innovatsion faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ma'lumot va tushunchalarga ega bo'lish mumkin. Ushbu maqsadlarga erishishda quyida berilgan AQSHdagi "U.S. News and World Report" tomonidan eng yaxshi global universitetlar orasida uchinchi o'ringa ega Stanford universitetida olib borilgan muloqot interfeyslari orqali smart tyutorlik faoliyatini tashkil etish, sun'iy intellektning tyutorlik jarayonida tutgan o'rni va ahamiyati, kamchiliklari va shu kabi masalalar to'g'risidagi tadqiqot ishi tahlili o'z hissasini qo'shadi.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, tyutorlik platformalari, interfeyslar, sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, metodlar, strategiyalar.

Abstract: This article provides information and insights on how to conduct tutoring activities with students in modern conditions and how to introduce educational technologies based on artificial intelligence, which are currently known and popular in this field, as well as on how to further improve the innovative activities of tutors based on the analysis of foreign experience. The analysis of the research work presented below on the organization of smart tutoring activities through communication interfaces at Stanford University, which is ranked third among the best global universities by U.S. News and World Report, contributes to achieving these goals.

Key words: innovative activities, tutoring platforms, interfaces, artificial intelligence, educational technologies, methods, strategies.

Аннотация: В данной статье представлена информация и рекомендации по проведению тьюторских занятий со студентами в современных условиях, внедрению известных и популярных в данной области образовательных технологий на основе искусственного интеллекта, а также по дальнейшему совершенствованию инновационной деятельности тьюторов на основе анализа зарубежного опыта. Анализ представленной ниже исследовательской работы по организации интеллектуальных тьюторских занятий посредством коммуникационных интерфейсов в Стэнфордском университете, занимающем третье место в мировом рейтинге лучших университетов по версии U.S. News and World Report, способствует достижению этих целей.

Ключевые слова: инновационные виды деятельности, обучающие платформы, интерфейсы, искусственный интеллект, образовательные технологии, методы, стратегии.

KIRISH

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda jamiyat hayotining turli jabhalarida, xususan, ta'lim tizimini isloh qilish va tashkil etish sohasida zamonaviy texnologik taraqqiyot o'zining salmoqli ta'sirini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, sun'iy intellekt borasidagi yutuqlar tufayli ta'lim jarayonini, qolaversa, talabalar bilan tyutorlik amaliyotini tashkil etishni yanada samarali, individual yondashuvga asoslangan hamda moslashuvchan tarzda tashkil etishga keng imkoniyatlar eshigi ochildi. An'anaviy ta'lim usullari orqali tyutorlik olib borishda tala-

balarning turli jihatlardagi bilim va ko'nikmalarini e'tiborga olishda va jarayonni shaxsiylashtirishda ba'zi cheklolvar yuzaga kelsa, sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu muammolarni bartaraf etishda ahamiyatlidir.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab tyutorlik faoliyatini yanada takomillashtiruvchi, sun'iy intellektga asoslangan moslashtirilgan o'quv platformalari, avtomatik tarzda baholash tizimlari, virtual tyutorlar va ta'lim chatbotlari tyutorlar hamda talabalar tomonidan keng qo'llanmoqda. Mazkur texnologiyalar orqali nafaqat talabalarning o'zlashtirish darajasi oshmoqda, balki tyutorlarning ish yuklamasini ham kamaytirishga salmoqli yengillik yaratilmoqda. Shu sababli, sun'iy intellektning tyutorlar innovatsion faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishdagi o'rnini chuqur o'rganish hamda uni samarali joriy etish texnologiyalarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi tyutorlarning ish jarayonini yanada tizimli, innovatsion hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish maqsadida xalqaro tajribalarni o'rganib chiqish katta ahamiyatga ega. Quyida berilgan AQSHdagi "U.S. News and World Report" tomonidan eng yaxshi global universitetlar orasida 3-o'ringa ega Stanford universitetida olib borilgan muloqot interfeyslari orqali smart tyutorlik faoliyatini tashkil etish, sun'iy intellektning tyutorlik jarayonida tutgan o'rni va ahamiyati, kamchiliklari va shu kabi masalalar doirasidagi tadqiqot ishi tahlili yurtimiz oliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishda konseptual asos sifatida xizmat qiladi, degan umiddamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

1984-yilda mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum duch kelgan hayratlanarli ta'lim hodisasi keyinchalik Blumning "two-sigma problem" nazariyasi sifatida tanildi¹. U yakka tartibdagi yakkama-yakka tyutorlik shaklida ta'lim olgan talabalarning o'quv natijalari an'anaviy sinf o'qitish usullari asosida o'qitilgan talabalarnikiga qaraganda ikki standart og'ish hajmida yuqori ekanligini aniqladi. Ushbu faoliyat samarali ekanligiga qaraganda, yakka tartibdagi tyutorlik yondashuvini keng miqyosda amalga oshirish professional tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis tyutorlarning kamligi va buning uchun juda katta xarajatlar talab etilishi sababli ilojisiz edi. Blum tadqiqot hamjamiyati uchun noyob, ammo hayajonli muammoni qo'yadi, keyinchalik bu muammo "Blum chelendji" deb nomlangan². Ya'ni yakka tartibdagi birga-bir tyutorlik tizimi bilan bir xil samaradorlikka erisha oladigan keng ko'lamdagi, iqtisodiy jihatdan maqbul tyutorlikni tashkil etish muammosini qanday hal qilish kerakligini ochib beruvchi masala hisoblanadi. Texnologiya tufayli biz jonli tyutorlik faoliyatidan samaraliroq jihatlarni olib, uni keng miqyosda qo'llanilishi mumkin bo'lgan kompyuter tyutorligiga integratsiya qilish imkoniyatiga egamiz. Tadqiqotchilar ta'lim texnologiyalarining istiqbolini anglab yetganlaridan beri o'nlab yillar davomida Bloomning "two-sigma problem" yondashuvi bilan bog'liq kompyuter tyutorligi bo'yicha tadqiqotlar olib bordilar.

Tadqiqotchilar ikki toifadagi turli xil kompyuterlashtirilgan tyutorlik tizimlarini yaratishga ko'p kuch sarfladilar. Birinchisi, kompyuter yordamida o'qitish (CAI) bo'lib, talabalarga faqat yakuniy javoblaridan keyin fikr-mulohazalar yoki ishoralar beradi. U har yili millionlab talabalar tomonidan hozirgi ta'lim dasturlarida keng qo'llaniladi. Tadqiqotlarga ko'ra, CALLar sinfda o'qitishga nisbatan talabalarning o'quv natijalarini taxminan 0,3 sigma yaxshilashi aniqlangan.

Ikkinchi turdagi tyutorlik tizimi talabalarga oraliq mulohaza yoki yechimlarni kiritish imkonini beradi va keyin bosqichma-bosqich xulosalarni taqdim etadi. Intellektual tyutorlik tizimi (ITS) deb ataladigan bu tizim ham tadqiqot prototiplarida, ham tijorat ilovalarida mavjud³. Ko'pgina ITSlar rasmiy o'rganish sharoitlari uchun mo'ljallangan va tabiiy til dialoglarini o'z ichiga olmaydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ITSlar sinfda o'qitishga nisbatan o'rganishni 1 sigmagacha yaxshilashi mumkin. Ushbu ikki turdagi kompyuterga asoslangan tyutorlik tizimlari o'rtacha hisobda sinfda o'qitishga nisbatan 0,3 dan 1 sigmagacha bo'lgan ta'lim yutuqlariga erishganligini ko'rsatadi.

Inson tyutorligi va kompyuter tyutorligi o'rtasidagi farqlarni o'rganib chiqib, tadqiqotchilar ko'rsatma va fidbek berish samarali tyutorlik strategiyalariga hissa qo'shadigan asosiy omillar ekanligini aniqladilar. Tyutorlardan o'z-o'zini rivojlantirish yechimlari va fikr-mulohazalar olish orqali talabalar bilimlaridagi bo'shliqlarni bartaraf etishlari va ko'proq o'rganish imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin, bu esa chuqurroq o'rganishni rag'batlantiradi va natijalarni yaxshilaydi. Ushbu topilmalar Chi va Wylie ning ta'limning interaktiv, konstruktiv, faol va passiv (ICAP) tizimi⁴ (ya'ni interaktiv va konstruktiv talabalar xatti-harakatlari faol va passiv talabalar xatti-harakatlariga qaraganda samaraliroq ekanligini ko'rsatadigan tizim) tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Ilg'or tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnikalari bilan jihozlangan suhbatga asoslangan tyutorlik tizimlari talabalarning

- 1 Robert A Bjork. Memory and metamemory considerations in the the training of human beings. *Metacognition: Knowing About Knowing*, 185, 1994
- 2 Kurt VanLehn. The relative effectiveness of human tutoring, intelligent tutoring systems, and other tutoring systems. *Educational Psychologist*, 46(4):197{221, 2011
- 3 Richard S. Sutton and Andrew G. Barto. *Introduction to Reinforcement Learning*. MIT Press, Cambridge, MA, USA, 1st edition, 1998.
- 4 Michelene T.H. Chi and Ruth Wylie. The icap framework: Linking cognitive engagement to active learning outcomes. *Educational psychologist*, 49(4):219 243, 2014



o'qishini rag'batlantirish uchun yuqori interaktiv va konstruktiv muhitda ko'rsatma va fikr-mulohazalarni simulyatsiya qilish imkonini beruvchi istiqbolli tyutorlik vositalari bo'lib xizmat qiladi. Kompyuter tyutorligi va inson tyutorligi o'rtasidagi yana bir muhim farq shundaki, tyutor mutaxassislar o'z faoliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirishlari mumkin. Shu maqsadda zamonaviy o'zini o'zi takomillashtiruvchi sun'iy intellekt (AI) algoritmlari, masalan, mustahkamlovchi o'rganish (RL) tomonidan ta'minlangan mustaqil o'rganuvchi tyutorlik tizimlari talabalarning o'qishini yaxshilash uchun ulkan imkoniyatlarni yaratadi.

Suhbat asosidagi tyutorlik tizimlarining boshqa afzalliklari ham bor. Inson tyutorlar va kompyuter tyutorlarini taqqoslagan avvalgi samaradorlik tadqiqotlari o'quvchilar o'rganishi shart bo'lgan nazorat ostidagi sinf yoki laboratoriya mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'lgan. Biroq, shaxsning umri davomida kunning 18,5 % dan ko'proq qismi rasmiy o'rganishga sarflanmaydi⁵. Qolgan vaqt davomida odamlar o'z xohish-irodasi bilan norasmiy muhitda o'rganadilar. Shuning uchun tasodifiy vaqtlarda ixtiyoriy o'rganishni rag'batlantiradigan o'quv vositalarini ishlab chiqish juda muhimdir. Tabiiy til muloqoti juda qiziqarli bo'lgani va o'rganuvchilarga javoblarni shakllantirish orqali faol tarzda bilim olishga imkon berganligi sababli, tadqiqotchilar suhbatga asoslangan tyutorlik tizimlari an'anaviy yondashuvlarga qaraganda yuqori darajadagi ishtirokni, o'rganishdagi yutuqlarni oshirishini va sifatli eslab qolishni rag'batlantirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Moslashuvchan fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun yangi AI texnikalaridan foydalanadigan suhbatga asoslangan tyutorlik tizimlari talabalarni ko'proq jalb qilishi, ularni tyutor bilan ko'proq vaqt o'tkazishga undashi va mavjud o'quv tizimlariga nisbatan talabalarning o'qishini yaxshilashi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tyutorlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va samaradorligini o'rganishga qaratilgan nazariy hamda tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar, xalqaro ta'lim tashkilotlari hisobotlari hamda Stanford universiteti tadqiqotchisi Sherry Ruan tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy tahlil, kontent tahlili, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlari tashkil etdi. Qiyosiy tahlil yordamida an'anaviy tyutorlik faoliyati hamda sun'iy intellektga asoslangan tyutorlik tizimlarining afzalliklari va kamchiliklari o'rganildi. Kontent tahlili orqali chatbotlar, intellektual tyutorlik tizimlari (ITS), sun'iy intellekt algoritmlari hamda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'рни baholandi.

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalarining ishlash mexanizmlari, talabalar bilan individual ishlash imkoniyatlari, bilimlarni monitoring qilish, moslashtirilgan fikr-mulohazalar berish va o'quv jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, chatbotlar va suhbatga asoslangan tyutorlik tizimlarining talabalar faolligi, motivatsiyasi hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha mavjud ilmiy natijalar umumlashtirildi.

Olingan ma'lumotlar ilmiy tahlil qilinib, tyutorlik faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Stanford universiteti tadqiqotchisi Sherry (Shanshan) Ruan tomonidan tyutorlik sohasida olib borilgan tadqiqot ishining ko'lamini HCI, AI va ta'lim kesishmasiga to'g'ri keladi. U mavjud tyutorlik tizimlarining asosiy komponentlarini, jumladan, suhbat interfeyslari va ta'limiy vazifalarga qo'llaniladigan eng zamonaviy AI usullarini muhokama qilgan va umumlashtirgan. Qolaversa, tyutorlik tizimlarida suhbat interfeyslaridan foydalanish, tyutorlik tizimlariga kiritilgan boshqa keng tarqalgan komponentlar, masalan, hikoyalar, o'yinlashtirilgan muhitlar va ishora asosidagi fikr-mulohaza tizimlari muhokamalari hamda ta'limda Alni qo'llash bo'yicha so'nggi yutuqlar umumlashmasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Olib borilgan izlanishlar tahlilidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, quyidagi yo'llar orqali sun'iy intellekt asosidagi suhbatdan tashkil topadigan ta'lim tizimlarining sistemalari, eksperimental va algoritmik rivojlanishiga erishish imkoni mavjud.

QuizBot - Facebook Messenger'da qurilgan suhbatga asoslangan adaptiv o'rganish tizimi bo'lib, talabalarga oddiy sharoitda faktik bilimlarni o'rgatadi.

EnglishBot - xitoylik kollej talabalariga interaktiv suhbatlar orqali ingliz tilida gapirishni mashq qilishga yordam beradigan ovozli chatbot.

Garchi chatbot atamasi turli kontekstlarda ishlatilsa-da, NLP hamjamiyati an'anaviy ravishda suhbat tizimlari uchun "suhbat agenti" iborasini ishlatadi, chatbot atamasini asosan tasodifiy suhbatlarni boshqaradigan

5 Reed Stevens, J Bransford, and A Stevens. The life center lifelong and lifewide learning diagram. Seattle, WA: LIFE Center, 2005

tizimlarning bir qismi uchun saqlab qo'yadi⁶. Sherry Ruan o'z ishida chatbot hamda suhbat agenti atamalarini bir-birining o'rnida ishlatadi, chunki uning tizimlari mobil qurilmalarda yoki noutbuklarda foydalanish maqsadida keng auditoriya uchun tasodifiy o'rganish vositalari sifatida ishlab chiqilgan.

Birinchi algoritmda u yangi bilimlarni kuzatish modeli - variatsion chuqur bilimlarni kuzatishni (VDKT) taklif qilgan bo'lib, bu talabalarning ixtiyoriy xatti-harakatlarini yashirin o'zgaruvchan modellashtirish orqali aniqlashi mumkin. Talabani o'quv jarayonidagi o'zaro faoliyati shovqinli va noaniq kechadi. Masalan, talaba asosiy tushunchalarni allaqachon o'zlashtirgan bo'lsa ham, savollarda xato qilishi mumkin. Talaba, shuningdek, muqobil tushunchalarni to'liq tushunmasdan turib savolga to'g'ri javobni taxmin qilishi mumkin. Bundan tashqari, talabalar yangi bilimlarni olish, uning bir qismini tushunish va keyin o'rganilgan tushunchalarning ba'zi qismlarini unutish orqali o'rganadilar. Natijada, talabani bilim holati o'rganish jarayonida o'zgarib turadi. Barcha o'zgarishlar talabani bilimni amalda qo'llashdagi ixtiyoriy, kutilmagan xatti-harakatlariga olib keladi. Faqat kuzatilgan ma'lumotlardan o'rganadigan hozirgi chuqur bilimlarni kuzatish modellari (DKT) ushbu yashirin hodisalarni o'z ichiga olgan stoxastik o'rganish jarayonlarini yetarli darajada aks ettira olmaydi. Sherry Ruan ushbu cheklovni talabani o'rganish jarayonida mavjud bo'lgan stoxastiklik va oson payqab bo'lmaydigan ma'lumotlarni olish uchun DKTLarga yashirin o'zgaruvchilarni kiritish orqali hal qiladi. U taklif qilgan model chuqur o'rganishga asoslangan bilimlarni kuzatish modellariga noaniqlikni kiritishning birinchi keng qamrovli urinishi bo'lib, u turli ta'limiy ma'lumotlar to'plamlaridagi zamonaviy modellashtirish aniqligiga erishadi.

Ikkinchi algoritmda u yangi ta'limiy savol-javob juftliklarini yaratish arxitekturasini ishlab chiqadi. Ta'lim beruvchilar uchun o'quvchilarga o'rganganliklarini baholash, mustahkamlash va savol berish samarali o'qitishning asosiy tarkibiy qismidir. So'roq qilish nafaqat bilim olishni tasdiqlaydi, balki tanqidiy fikrlash, eslab qolish va ishtirok etishga ham yordam beradi. Xuddi shunday, texnologiyaga asoslangan ta'lim tizimlari mazmunli o'rganish tajribasini taqdim etish uchun tushunarli, pedagogik jihatdan muhim savollarni yaratishga qodir bo'lishi kerak. Inson va dasturiy ta'minot tyutorlari o'rtasidagi muhim farq ularning tabiiy tildan foydalanish qobiliyatidir. Inson tyutorlar dasturiy ta'minot tyutorlariga qaraganda tushunchalarni talabalarga yetkazib berishda va ularning tabiiy til orqali nimani tushunishlarini baholashda ancha malakalidir. Ko'rinib turibdiki, tyutorlik dasturi talabalarga samarali fikr-mulohazalarni yo'naltirish borasida cheklangan. Shuning uchun Sherry Ruan talabalarning tabiiy tildagi ma'lumotlariga asoslangan fikr-mulohazalarni yo'naltirish usulini ishlab chiqadi. Baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, tabiiy tilga asoslangan maqsadli siyosatlar ko'p tanlovga asoslangan siyosatlariga qaraganda kamroq mashqlardan optimal fikr-mulohaza harakatlarini tanlaydi va tabiiy til siyosatlari ilgari ko'rilgan o'zaro ta'sirlarda sinovdan o'tkazilganda ham samarali bo'ladi.

Tadqiqotning eksperimental natijalariga ko'ra, 76 nafar talabalar ishtirokidagi baholash shuni ko'rsatadiki, chatbotlar an'anaviy flesh-karta ilovalariga qaraganda faktik bilimlarni o'rganishning yanada qiziqarli va samarali usuli hisoblanadi. 56 nafar xitoy tilida so'zlashuvchi kollej talabalar ishtirokidagi baholash shuni ko'rsatadiki, chatbotlar an'anaviy tinglash va takrorlash tizimlariga qaraganda ingliz tilida gapirishni mashq qilishning yanada qiziqarli va samarali usuli hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda sun'iy intellektga asoslangan tyutorlik tizimlari nazariy yutuqlar bilan qo'llab-quvvatlanishi va rivojlantirilishi kerak. Sherry Ruan tomonidan amalga oshirilgan uchta maxsus algoritmik harakat ta'lim uchun sun'iy intellekt texnikasining holatini yaxshilash maqsadini ko'zda tutadi. Ushbu uchta algoritm avtomatlashtirilgan savol-javob yaratish orqali talabalarning oldingi bilimlarini baholashga, o'rganish davomida talabalarning bilim holatini kuzatishga va tabiiy til interfeyslari orqali individual fikr-mulohazalarni taqdim etishga qaratilgan. Ushbu yangi sun'iy intellekt algoritmlari individual tyutorlikni ta'minlash uchun suhbat interfeyslarida qo'llanilishi mumkin. Ushbu xorij tajribasini o'rganish orqali mamlakatimiz tyutorlik tizimiga ham sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar hamda turli platformalarni tatbiq etishda, qolaversa, amaliyotda keng qo'llash hamda ushbu sohani yanada ravnaq toptirishda ko'plab yutuqlarga erishish imkoni mavjud, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Robert A Bjork. Memory and metamemory considerations in the the training of human beings. *Metacognition: Knowing About Knowing*, 185, 1994
2. Kurt VanLehn. The relative effectiveness of human tutoring, intelligent tutoring systems, and other tutoring systems. *Educational Psychologist*, 46(4):197{221, 2011
3. Richard S. Sutton and Andrew G. Barto. *Introduction to Reinforcement Learning*. MIT Press, Cambridge, MA, USA, 1st edition, 1998

6 Daniel Jurafsky and James H. Martin. *Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition*. Prentice Hall PTR, Upper Saddle River, NJ, USA, 1st edition, 2000



4. Michelene T.H. Chi and Ruth Wylie. The icap framework: Linking cognitive engagement to active learning outcomes. *Educational psychologist*, 49(4):219-243, 2014
5. Reed Stevens, J Bransford, and A Stevens. *The life center lifelong and lifewide learning diagram*. Seattle, WA: LIFE Center, 2005
6. W Lewis Johnson and James C Lester. Pedagogical agents: Back to the future. *AI Magazine*, 39(2), 2018
7. Daniel Jurafsky and James H. Martin. *Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition*. Prentice Hall PTR, Upper Saddle River, NJ, USA, 1st edition, 2000
8. Sherry Ruan, Liwei Jiang, Justin Xu, Bryce Joe-Kun Tham, Zhengneng Qiu, Yeshuang Zhu, Elizabeth L. Murnane, Emma Brunskill, and James A. Landay. QuizBot: A dialogue-based adaptive learning system for factual knowledge. In *Proceedings of the 2019 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems, CHI '19*, pages 357:1-357:13, New York, NY, USA, 2019. ACM.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.